

**FOIZ BILAN TALAB QILIB OLINGUNCHA DEPOZIT HISOBVARAG'**  
**\_\_\_\_-SONLI SHARTNOMASI**  
«SavingId»

«Date»

Toshkent sh.

ATB "TBC Bank", bundan buyon "Bank" deb ataluvchi nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi «DisbursementResponsiblePerson» bir tarafdin va «FullName» keying o'rinlarda "Mijoz" deb ataluvchilar, birgalikda "Tomonlar" deb nomlanib, ushbu shartnomani (bundan buyon "Shartnoma" deb nomlanuvchi) quyidagilar haqida tuzdilar:

### **1. SHARTNOMA PREDMETI**

**1.1.** Foiz bilan talab qilib olinguncha depozit hisobvarag' shartnomasi (bundan buyon - omonat hisobvarag' shartnomasi) mijozning ATB "TBC Bank" mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etishning Bosh shartlarini qabul qilishi (bundan buyon – Bosh shartlar), ushbu Shartnoma shartlari va bank hisob varaqlarini ochishga doir shartnoma/arizani imzolashi, ularga xizmat ko'rsatish va boshqa bank xizmatlarini va mahsulotlarini (bundan buyon - Shartnoma / Ariza)ni qabul qilishi sharti bilan tuziladi. Qabul qilish mijozning talabiga binoan talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'ini masofadan ochish (Bank uni ochish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni olgan holda) va unga Mijozning pul mablag'larini hisobraqamlash orqali ifodalanadi. Mijozning bank hisobraqamiga pul mablag'lari kirim qilingan sanadan boshlab Omonat hisobvara q shartnomasi tuzilgan hisoblanadi.

**1.2.** Ushbu Shartnoma Bosh shartlar va Shartnoma/Arizaning ajralmas qismi hisoblanadi..

**1.3.** Ushbu shartnomada qo'llanilgan atama va ta'riflar Bosh shartlarda ko'rsatilgan.

### **2. SHARTLAR, PUL MABLAG'LARNI JOYLASHTIRISH VA QAYTARISH**

**2.1.** Mijoz depozit qo'yadi va Bank Mijozdan masofaviy bank xizmati tizimidan foydalangan holda talab qilib olinguncha depozit hisobvarag' bo'yicha mablag'ni qabul qiladi va mablag'lar va hisoblangan foizlar miqdorini ushbu omonat hisobvarag'i shartnomasida nazarda tutilgan tartibda va shartlarda qaytarish majburiyatini oladi.

#### **2.2. Omonat hisobvarag'i shartnomasining shartlari:**

**2.2.1.** foiz stavkasi: [www.tbcbank.uz](http://www.tbcbank.uz) rasmiy veb-saytida joylashtirilgan Bank tariflariga muvofiq;

**2.2.2.** muddatli: cheklanmagan;

**2.2.3.** qo'shimcha badallar kiritish: ko'zda tutilgan, miqdori bo'yicha cheklovlar mavjud emas.;

**2.2.4.** mablag'larni qisman yechib olish, shuningdek hisobni to'liq yopishni: istalgan vaqtda amalga oshirish mumkin, quyidagi holatlar bundan mustasno:

- agar operatsiyalar o'tkazish jarayonida masofaviy bank xizmatlari tizimi faoliyati ishtirokchilardan birining texnik sabablar bo'yicha vaqtincha ishlamayotgan bo'lsa;

- operatsion kunining yopilish jarayonida.

**2.2.5.** oylik foizlar kapitallashuvi har oyning oxirida hisoblangan foizlarni mijozning bank hisobraqamiga avtomatik tarzda o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

**2.2.6.** Foizlar operatsion kun davomidagi hisobvaraqq qoldig'ining eng kam miqdoriga hisoblanadi, bunda hisobvaraqqning eng kam miqdori kun davomida yechib olingan summalar qoldiqdan ayirib tashlangan holda hisoblanadi hamda operatsion kun davomida hisobvaraqqa kirim qilingan summalar eng kam qoldiqni hisoblashda inobatga olinmaydi. Hisoblangan foizlar mobil ilovada ko'rsatilmaydi.

**2.3.** Ushbu shartnomani masofaviy bank xizmati tizimi orqali qabul qilib, Mijoz Bank tomonidan taklif qilinadigan ushbu Bank mahsuloti bo'yicha tarif va shartlarga rozi bo'ladi.

**2.4.** Talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga pul mablag'larini faqat naqdsiz ko'rinishda, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan usullar bilan amalga oshiriladi.

**2.5.** Talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'ini to'ldirish uchun kelib tushgan pul mablag'lar, pul mablag'lari kelib tushgan kundan keyingi sanadan kechiktirmay kirim qilinadi.

**2.6.** Mijozning xohishiga binoan omonat hisobvarag'idan to'liq yoki qisman pul mablag'larini yechish qat'iyana naqd pulsiz shaklda, keying bank ish kunidan kechikmagan holda, Bank mobil ilovasida faollashtirilgan istalgan bank hisobraqamiga yoki bank kartasiga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

**2.7.** Mijozning xohishiga binoan, talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'idagi barcha mablag'larni Mijozning Bankda ochilgan joriy hisob raqamiga yoki ATB "TBC Bank" tomonidan chiqarilgan bank kartaga o'tkazish orqali talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i istalgan vaqtda yopilishi mumkin.

**2.8.** Talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'ini ochish va unga xizmat ko'rsatish, va shuningdek operatsiyalarni o'tkazish uchun, bank tariflarida belgilanadigan hajm va tartibda komissiya miqdorini undirishi mumkin.

### **3. HISOB-KITOBLAR VA FOIZ TO'LOVLARI**

**3.1.** Talab qilib olinguncha depozit hisobraqamlaridagi mablag'lar qoldig'iga foizlar omonat hisobraqamiga pul mablag'lari kirim qilingan sanadan keyingi kundan boshlab, omonat hisobraqamidan boshqa sabablarga ko'ra pul mablag'lari yechib olingunga qadar hisoblanadi.

**3.1.1.** Foizlarni to'lab berish har bir foiz hisoblanadigan talab qilib olinguncha depozit hisobraqamlar uchun (agarda mijozda bir nechta hisobraqam mavjud bo'lsa) tugayotgan oyning oxirgi bank ish kunida amalga oshiriladi.

**3.2.** Tariflarga Foiz stavkasining o'zgarishi bo'yicha kiritiladigan o'zgarishlar to'g'risida mijoz bankning [www.tbcbank.uz](http://www.tbcbank.uz) veb-saytida, bank mobil ilovasida va/yoki ATB "TBC Bank" xizmat ko'rsatish ofislarida o'zgarishlar to'g'risida ma'lumotlarni joylashtirish yo'li bilan 10 kalendar kunidan kam bo'lmagan muddat ichida xabardor qilinadi. 10 kalendar kunidan keyin foiz stavkasi bo'yicha Tariflarga kiritilgan o'zgarishlar yangi tahrirda foydalaniladi.

Agar mijoz Tariflarga Foiz stavkasining o'zgarishi bo'yicha kiritiladigan o'zgarishlarga rozi bo'lmasa, amaldagi qonunchilikka binoan barcha pul mablag'lari va hisoblangan foizlarni talab qilishga hamda talab qilib olinguncha omonat hisobraqamini yopishga haqli.

**3.3.** “Tijorat banklarida foizlarni hisoblash to‘g‘risida”gi nizomga (AV 2004-yil 30-yanvar 1306-son) muvofiq baza sifatida mijozning hisobraqamida omonat turgan kalendar kunlari hisobga olinadi. Shuningdek, yillik hisob kunlari sifatida 365 kun qo‘llaniladi. Talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘laridagi mablag‘lar qoldig‘iga foizlar omonat hisobraqamiga pul mablag‘lari kirim qilingan sanadan keyingi kundan boshlab, omonat hisobraqamidan boshqa sabablarga ko‘ra pul mablag‘lari yechib olingunga qadar hisoblanadi. Agarda talab qilib olinguncha depozit hisobraqamiga dam olish/bayram kunlari mablag‘lar kirim qilinsa, dam olish kundan keyingi birinchi ish kuni mablag‘lar kirim qilingan kuni hisoblanadi.

**3.4.** Bank tomonidan talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘iga qabul qilingan mablag‘larning qaytarilishi "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoya qilish kafolatlari to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasining 2002 yil 5 apreldagi 360-II -sonli Qonuniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi banklaridagi fuqarolarning omonatlarini kafolatlash fondi tomonidan kafolatlanadi

## **4. TOMONLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI**

### **4.1. Mijoz huquqlari:**

**4.1.1.** Maksimal 5 (besh)ta talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘ini ochish;

**4.1.2.** Masofaviy bank xizmati tizimi orqali Bankdan Omonat hisobvarag‘ining to‘liq yoki qisman talab qilinishini talab qilish;

**4.1.3.** Agar omonat hisobvarag‘ shartnomasida ushbu imkoniyat o‘rnatilgan bo‘lsa, masofaviy bank xizmati tizimi orqali qo‘shimcha pul mablag‘larini talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘iga kiritish;

**4.1.4.** Ushbu shartnomada belgilangan shartlar va tariflar bo‘yicha bir nechta talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘larini joylashtirish:

- masofaviy xizmat kanallari orqali;
- Bank filiallarining ish soatlarida Bank filiallarida o‘rnatilgan o‘ziga xizmat ko‘rsatish vositalaridan foydalanish orqali.

### **4.2. Mijoz majburiyatlari:**

**4.2.1.** Omonat hisobvarag‘ shartnomasi, shartlari bilan tanishish;

**4.2.2.** hisob varaqlar bo‘yicha operatsiyalarni O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining va boshqa vakolatli organlarning qarorlariga qat‘iy muvofiq ravishda amalga oshirish. Mijoz Xisobvaraqlar ochish, hisobvaraqlar bo‘yicha operatsiyalarni bajarish uchun taqdim etilgan hujjatlar va ma‘lumotlarning to‘g‘riligi uchun javobgardir;

**4.2.3.** hisob-kitoblarga noto‘g‘ri kirim qilingan va/yoki hisob-kitoblardan noto‘g‘ri chiqarib yuborilgan mablag‘lar aniqlangan taqdirda, darhol Bankni bu haqda biron-bir tarzda xabardor qilish;

**4.2.4.** Bosh shartnomada ko‘rsatilgan aloqa kanallari orqali 3 kalendar kuni ichida, ushbu shartnomaning bajarilishiga ta‘sir qiladigan, manzili va / yoki telefon raqamining o‘zgarishi, shu jumladan uyali telefon, familiya, ism yoki otasining ismi, shaxsni tasdiqlovchi hujjat yoki boshqa hujjatlar o‘zgartirilishi to‘g‘risida Bankni xabardor qilish.

### **4.3. Bank huquqlari:**

**4.3.1.** Mijozning e‘tirozidan qat‘iy nazar, tegishli davlat organlaridan ijro hujjatlari olingan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda choralar ko‘rish

(mablag'larni tortib olish, mablag'larni to'g'ridan-to'g'ri debetlash, xisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib qo'yish va boshqalar), shuningdek talab qilib olinguncha hisobvarag'idagi hisoblangan va to'langan foizlarni to'g'ridan-to'g'ri hisobdan chiqarish, hisobvaraqlarda pulni noto'g'ri qabul qilish (hisoblash) fakti aniqlangandan keyin qaytarish;

**4.3.2.** Bankning yangiliklarini, shuningdek mijozning talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'idan amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotni ushbu shartnoma va arizada ko'rsatilgan mijozning mobil telefon raqamiga SMS xabarlar yoki elektron pochta manziliga xabarlar yuborish;

**4.3.3.** Jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish uchun Bank Mijozdan talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'ida amalga oshirilgan operatsiyalarning qonuniyligini tasdiqlovchi ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etishini talab qilishga haqlidir;

**4.3.4.** Talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'idagi operatsiyalarni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlarida va jinoyatlardan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda to'xtatib qo'yish yoki faollashtirishni rad etish.

#### **4.4. Bank majburiyatlari:**

**4.4.1.** Mijozning xohishiga ko'ra bank karta yoki Mijozning Bankda ochilgan joriy hisobvarag'iga Talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'idan va unga hisoblangan foizlarni qaytarish faqat naqdsiz shaklda amalga oshiriladi.

**4.4.2.** Hisoblardagi mablag'larning saqlanishini ta'minlash. Hisob varaqlardagi mablag'larni tortib olish yoki hisob varaqlar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish faqat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan hollardagina amalga oshiriladi.

### **5. BANK SIRI**

**5.1.** Bank O'zbekiston Respublikasining "Bank siri to'g'risida" gi qonuniga, Bosh shartlarga va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlariga muvofiq ma'lumotlarning maxfiylikini va bank sirini tashkil etuvchi mijozlarning ma'lumotlarini saqlanishini kafolatlaydi.

**5.2.** Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar Mijoz yoki uning vakili tomonidan uning so'roviga binoan (yozma yoki elektron shaklda) Bank tomonidan taqdim etilishi mumkin.

**5.3.** Mijozning Bank siri hisoblangan ma'lumotlari uchinchi shaxslarga O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda taqdim etiladi.

### **6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI.**

**6.1.** Tomonlar o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun Bosh shartnoma va ushbu Shartnomaning shartlarini buzgan tomon O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

### **7. MAXSUS SHARTLAR.**

**7.1.** Bank tomonidan qabul qilingan shahsiy ma'lumotlar qo'yidagi maqsadlarda foydalaniladi va ulardan foydalanishi mumkin:

**7.1.1.** Mijoz manfaat oluvchi yoki manfaatdor tomon bo'lgan shartnomalarni tuzishda va bajarishda;

**7.1.2.** Mijozning huquq va majburiyatlarini lozim darajada bajarilishini ta'minlashda;

**7.1.3.** Ma'lumotlarni tekshirish, shu jumladan sohta bitimlarning oldini olish maqsadida;

**7.1.4.** Shartnomalar bajarilishi bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni Mijozga yetqazish, shuningdek uchinchi tomonning qo'shma dasturlarida (sodiqlik dasturlarida) ishtirok etadigan uchinchi shahslar to'g'risidagi ma'lumotlardan xabardor qilish;

**7.1.5.** Sug'urta, pochta tashkilotlari, aloqa tashkilotlariga o'tkazmalarda;

**7.1.6.** Bank tomonidan statistik va / yoki marketing tadqiqotlarini o'tkazish va / yoki Mijozga Bank va sheriklarining yangi mahsulotlari/ xizmatlari to'g'risida ma'lumot berishda.

**7.1.7.** Boshqa davlat tashkilotlariga, shuningdek jismoniy shaxslarga muddati o'tgan qarzlarni undirish uchun.

**7.2.** Hisobdagi pulni Mijoz o'z xohishiga qo'ra mustaqil ravishda boshqaradi, Bosh shartlar, amaldagi qonun hujjatlari va Shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

**7.3.** Bank Mijozning mablag'laridan foydalanish shaklini belgilash va nazorat qilish, shuningdek Mijozning pul mablag'larini ishlatish va tasarruf etish huquqlarini cheklash huquqiga ega emas.

**7.4.** Shartnomada ko'zda tutilmagan Bank va Mijozning o'rtasidagi munosabatlar, Bosh shartlar va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga muvofiq tartibga solinadi.

**7.5.** Tomonlar uchun Mijozning hisob varag'i bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ-huquqiy hujjatlari bilan belgilanadi va ikkala tomon uchun ham majburiydir.

## **8. SHARTNOMANI YOPISH VA BEKOR QILISH TARTIBI.**

**8.1.** Talab qilib olinguncha hisob raqam qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda, Bank xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan mavjud barcha qarzni Bankka qaytarish bilan belgilangan tartibda, masofaviy bank xizmati tizimi orqali yopilishi va bekor qilinishi mumkin (mijozga talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'idagi summa va bunday shartnoma shartlariga muvofiq hisoblangan foizlar qaytarilishi sharti bilan va talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i yopilganda).

**8.2.** Talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'ini yopilishiga, masofaviy bank xizmati tizimi orqali Mijozning o'z istagi yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq omonat hisobvarag'ining bekor qilinishi asos bo'ladi.

**8.3.** Shartnoma qabul qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi, noma'lum muddatga tuziladi va mijoz tomonidan istalgan vaqtda yoki bankning so'roviga binoan sud orqali, mijoz tomonidan qabul qilingan shartnoma majburiyatlarini bajarmaganligi yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa holatlarda, to'xtatilgunga qadar amal qiladi.

**8.4.** Mijoz ushbu shartnomaning 3.2-bandida ko'rsatilgan Tariflarga Foiz stavkasining o'zgarishi bo'yicha kiritiladigan o'zgarishlarga rozi bo'lmagan taqdirda, mijozning bankka masofaviy aloqa kanallari orqali kelib tushgan norozilik va/yoki rad etish talab qilib olinguncha

omonat hisobraqamini yopish bo'yicha arizaga tenglashtiriladi va bu bankka talab qilib olinguncha omonat hisobraqamini yopish huquqini beradi.

**8.5.** Ushbu Shartnomaga kiritilgan barcha o'zgarish va qo'shimchalar Bosh shartlarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.